

Тошкент ш. 2022 йил «18» 01  
 «Тошкент вилояти Дори-Дармон» АЖ, бундан буён матнда «Сотувчи» деб аталувчи, номидан ва Низомга асосан фаолиятини амалга оширувчи Бошқарув раиси А.А. Каримов, бир томондан, ҳамда РИО ва РИАНМТБЗ бундан буён матнда «Харидор» деб аталувчи ва Устаб га асосан фаолиятини амалга оширувчи Директор А.Н. Абдухалимов иккинчи томондан қуйидагилар тўғрисида ушбу Шартномани туздилар:

### I. ШАРТНОМА ПРЕДМЕТИ

1.1. «Сотувчи» «Харидор»нинг бир маротабалик ёки йиллик талабномаси асосида дори воситалари, тиббиёт буюмлари ва бошқа турдаги маҳсулотларни (бундан кейинги ўринларда «Товар» деб юритилади) сотади, «Харидор» эса олган товарнинг ҳақини «Сотувчи»нинг банкидаги тегишли ҳисоб-рақамга келишилган муддатда ўтказиб беришни ўз зиммасига олади.

1.2. Шартноманинг тахминий баҳоси 754860 сўмни ташкил этади.

Шартноманинг охири якуний суммаси ҳисоб-фактура ва спецификациялар асосида амалда сотилган Товарлар суммасидан келиб чиқади. Мазкур Шартнома бўйича Товарлар нархи ҚҚС билан белгиланади, амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ қўшилган қиймат солиғи солинмайдиган дори воситалари ва тиббиёт воситалари бундан мустасно.

1.3. Сотилган Товарларнинг умумий баҳоси, тури, сони, нархи, спецификация (илова) да қайд этилади.

### II. ТОВАР СИФАТИ

2.1. «Сотувчи» «Харидор»га Ўзбекистон Республикасида Фармакологик рўйхатдан ўтган, тиббиётда ишлатишга рuxсат этилган, сифат, маркировка ва ўрамлари фармацевтик ва техник талабларга жавоб берадиган ҳамда сифат сертификати эга бўлган дори воситалари ва тиббий буюмларни, шунингдек бошқа буюмларни сотади.

### III. ЕТКАЗИБ БЕРИШ ШАРТЛАРИ

3.1. «Харидор» гиёҳванд ва психотроп дори воситалари ҳамда прекурсорларни сотиб олишда уларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолият учун олинган ўзининг лицензиясининг нусхасини «Сотувчи»га тақдим қилиши лозим.

3.2. Сотиб олинган товарларни жўнатиш шarti: «Харидор» товарларни «Сотувчи» омборхонасидан ўзи олиб кетади.

3.3. Олдиндан тўлов амалга оширилгандан сўнг товарлар «Харидор» томонидан 5 кун мобайнида олиб кетилади.

3.4. Товарга бўлган мулк ҳуқуқи «Харидор» томонидан тўловлар тўлиқ тўлангандан кейин Харидорга ўтади.

3.5. Товарлар Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 30.06.2020 йилда рўйхатдан ўтган, 3259 – сонли буйруғига мувофиқ «Харидор» томонидан товар-моддий бойликларни олиш учун ваколатли шахс томонидан тегишли равишда расмийлаштирилган ишончномага мувофиқ тақдим етилган тақдирда топширилади.

3.6. Товарларни етказиб бериш санаси - бу «Сотувчи» томонидан электрон ҳужжат айланишининг автоматлаштирилган ахборот тизими орқали электрон

Тoshkent sh. 2022 y. «18» 01

«Toshkent viloyati Dori-Darmon» AJ, bundan buyon matnda «Sotuvchi» deb ataluvchi, nomidan va Nizomga asosan faoliyatini amalga oshiruvchi Boshqaruv raisi A.A. Karimov, bir tomondan, hamda РИО ва РИАНМТБЗ bundan buyon matnda «Xaridor» deb ataluvchi va Устаб ga asosan faoliyatini amalga oshiruvchi Директор А.Н. Абдухалимов ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» «Xaridor»ning bir marotabalik yoki yillik talabnomasi asosida дори vositalari, tibbiyot buyumlari va boshqa turdagi mahsulotlarni (bundan keyingi o'rinlarda «Tovar» deb yuritiladi) sotadi, «Xaridor» esa olgan tovarning haqini «Sotuvchi»ning bankidagi tegishli hisob-raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnomaning taxminiy bahosi 754860 so'mni tashkil etadi.

Shartnomaning oxirgi yakuniy summasi hisob-faktura va spesifikasiyalar asosida amalda sotilgan tovarlar summasidan kelib chiqadi. Mazkur shartnoma bo'yicha tovarlar narxi QQS bilan belgilanadi, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan дори vositalari va tibbiyot vositalari bundan mustasno.

1.3. Sotilgan Tovarlarning umumiy bahosi, turi, soni, narxi, spesifikasiya (ilova) da qayd etiladi.

### II. TOVAR SIFATI

2.1. «Sotuvchi» «Xaridor»ga O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yxatdan o'tgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan, sifat, markirovka va o'ramlari farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan дори vositalari va tibbiy buyumlarni, shuningdek boshqa buyumlarni sotadi.

### III. YETKAZIB BERISH SHARTLARI

3.1. «Xaridor»: giyohvand va psixotrop дори vositalari hamda prekursorlarni sotib olishda ularning muomalasi bilan bog'liq faoliyat uchun olingan o'zining lisenziyasining nusxasini «Sotuvchi»ga taqdim qilishi lozim.

3.2. Sotib olingan tovarlarni jo'natish sharti: «Xaridor» tovarlarni «Sotuvchi» omborxonasidan o'zi olib ketadi.

3.3. Oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng tovarlar «Xaridor» tomonidan 5 kun mobaynida olib ketiladi.

3.4. Tovarga bo'lgan mulk huquqi «Xaridor» tomonidan to'lovlar to'liq to'langandan keyin «Xaridor»ga o'tadi.

3.5. Tovarlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 30.06.2020 yilda ro'yxatdan o'tgan, 3259 – sonli buyrug'iga muvofiq «Xaridor» tomonidan tovar-moddiy boyliklarni olish uchun vakolatli shaxs tomonidan tegishli ravishda rasmiylashtirilgan ishonchnoma ga muvofiq taqdim etilgan taqdirda topshiriladi.

3.6. Tovarlarni yetkazib berish sanasi - bu «Sotuvchi» tomonidan elektron hujjat aylanishining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali elektron hisob-fakturani (EHF) rasmiylashtirish sanasi deb hisoblanadi. EHF olingan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida «Xaridor» uni elektron hujjat

хисоб-фактурани (ЭХФ) расмийлаштириш санаси деб хисобланади. ЭХФ олинган кундан бошлаб 5 (беш) кун ичида «Харидор» уни электрон ҳужжат айланишининг автоматлаштирилган ахборот тизимидаги шахсий кабинети орқали тасдиқлашни ўз зиммасига олади.

3.7. Товарнинг тасодифий яроқсиз аҳволга келиши ёки унга шикаст етиши эҳтимоллари учун жавобгарлик Харидорга товар Сотувчи томонидан Харидорга топширилгандан сўнг ўтади.

3.8. «Харидор» товарни қабул қилиб олиш жараёнида уни тўлиқ кўздан кечириб, агарда товарларни шартнома талабларига номувофиқ эканлиги аниқланган тақдирда бу ҳақда зудлик билан Сотувчига маълум қилади ҳамда у алмаштирилади. Ушбу ҳолат Харидор омборхонасида аниқланган тақдирда, Харидор бу ҳақда Сотувчига бир кун мобайнида ёзма тарзда (Рекламация) хабар қилади. Ушбу талаблар Харидор томонидан амалга оширилмаган тақдирда Сотувчи Харидор талабларини бажармаслик ҳуқуқига эга.

#### IV. ТўЛОВ ШАРТЛАРИ

4.1 Тўлов тартиби олдиндан товар умумий нархининг 30% ни шартнома кучга кирган кундан бошлаб 10 кун ичида тўлаши, қолган 70% суммани эса тарафлар ўртасида қабул қилиб олиш акти имзоланганидан кейин 30 тақвим куни мобайнида амалга оширилади.

4.2 Агарда тўлов, шартноманинг 4.1 бандига асосан пул маблағлари туланмаган тақдирда, «Сотувчи» бир тарафлама товар нархларини ўзгартириш ёки ушбу шартномани бекор қилиш ҳуқуқига эга бўлади.

4.3 Агарда «Харидор» ушбу шартнома имзолангандан кейин 5 кун ичида товарни танлаб олишни амалга оширмаса, «Сотувчи» ушбу шартномани бекор қилиш ҳуқуқига эга бўлиб, шартноманинг олдиндан тўланган тўлов қийматини унинг 10%ни ушлаб қолган ҳолда қайтариши лозим бўлади.

#### V. ТАРАФЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

5.1. Шартнома мажбуриятларини тўлиқ ёки қисман бажармаганликлари учун томонлар Ўзбекистон Республикасининг «Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси туғрисида»ги қонуни талаблари доирасида мулкый жавобгардирлар.

5.2. Шартномани 2.1 бандига асосан «Сотувчи» томонидан сотилган товар сифатсизлиги тегишли ҳужжатлар билан 3 кун ичида тасдиқланса, у ҳолда «Сотувчи» сифатсиз товарни сифатли товар билан алмаштириб беради ва бу билан боғлиқ барча харажатларни ўз зиммасига олади.

5.3. Агарда «Харидор» ушбу шартномада кўрсатилган тўлов муддатларини асосиз кечиктирган тақдирда, ҳар бир тўлов амалга оширилмаган кун учун шартнома суммасининг 0.4% миқдоридан жарима тўлайди, лекин ушбу жарима миқдори кечиктирилган тўловнинг 50%идан юқори булмалиги лозим.

5.4. Товар бериш Сотувчи томонидан кечиктирилган ёки умуман тақдим қилинмаган ҳолларда, сотувчи ҳар бир кечиктирилган кун учун 0,5% миқдоридан, тақдим қилинмаган товар қийматининг 50% кўп бўлмаган миқдорда жарима тўлайди.

5.5. Ушбу шартноманинг талабларини бузганлик учун тарафлар тегишли тарзда жавобгар бўладилар. Зарарлар қопланиши туғридан туғри етказилган зарар ва олинмаган фойданинг қопланиши тартибида ундирилади.

#### VI. ФОРС-МАЖОР ҲОЛАТЛАРИ

aylanishining avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi shaxsiy kabineti orqali tasdiqlashni o'z zimmasiga oladi.

3.6. Tovarning tasodifiy yaroqsiz ahvolga kelishi yoki unga shikast yetishi ehtimollari uchun javobgarlik "Xaridor"ga tovar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor"ga topshirilgandan so'ng o'tadi.

3.7. "Xaridor" tovarni qabul qilib olish jarayonida uni to'liq ko'zdan kechirib, agarda tovarlarni shartnoma talablariga nomuvofiq ekanligi aniqlangan taqdirda bu haqda zudlik bilan "Sotuvchi"ga ma'lum qiladi hamda u almashtiriladi. Ushbu holat "Xaridor" omborxonasi aniqlangan taqdirda, "Xaridor" bu haqda "Sotuvchi"ga bir kun mobaynida yozma tarzda (Reklamasiya) xabar qiladi. Ushbu talablar "Xaridor" tomonidan amalga oshirilmagan taqdirda "Sotuvchi" "Xaridor" talablarini bajarmaslik huquqiga ega.

#### IV. TO'LOV SHARTLARI

4.1. To'lov tartibi oldindan tovar umumiy narxining 30% ni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 10 kun ichida to'lashi, qolgan 70% summani esa taraflar o'rtasida qabul qilib olish akti imzolanganidan keyin 30 taqvim kuni mobaynida amalga oshiriladi.

4.2. Agarda to'lov, shartnomaning 4.1 bandiga asosan pul mablag'lari to'lanmagan taqdirda, "Sotuvchi" bir taraflama tovar narxlarini o'zgartirish yoki ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi.

4.3. Agarda "Xaridor" ushbu shartnoma imzolanganidan keyin 5 kun ichida tovarni tanlab olishni amalga oshirmasa, "Sotuvchi" ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'lib, shartnomaning oldindan to'langan to'lov qiymatini uning 10%ni ushlab qolgan holda qaytarishi lozim bo'ladi.

#### V. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Shartnoma majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni talablari doirasida mulkiy javobgardirlar.

5.2. Shartnomani 2.1 bandiga asosan "Sotuvchi" tomonidan sotilgan tovar sifatsizligi tegishli hujjatlar bilan 3 kun ichida tasdiqlansa, u holda "Sotuvchi" sifatsiz tovarni sifatli tovar bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'lik barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

5.3. Agarda "Xaridor" ushbu shartnomada ko'rsatilgan to'lov muddatlarini asossiz kechiktirgan taqdirda, har bir to'lov amalga oshirilmagan kun uchun shartnoma summasining 0.4% miqdorida jarima to'laydi, lekin ushbu jarima miqdori kechiktirilgan to'lovning 50%idan yuqori bo'lmasligi lozim.

5.4. Tovar berish "Sotuvchi" tomonidan kechiktirilgan yoki umuman taqdim qilinmagan hollarda, "Sotuvchi" har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5% miqdorida, taqdim qilinmagan tovar qiymatining 50% ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

5.5. Ushbu shartnomaning talablarini buzganlik uchun taraflar tegishli tarzda javobgar bo'ladilar. Zararlar qoplanishi to'g'ridan to'g'ri yetkazilgan zarar va olinmagan foydaning qoplanishi tartibida undiriladi.

#### VI. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Тарафларнинг биронтаси ҳам бошқа тарафнинг олдида ушбу шартнома бўйича олган мажбуриятларни тарафларнинг эрки ва истагидан ташқари пайдо булган ва уларни олдиндан кура билиш ёки бартараф этиш мумкин булмаган ҳолатлар (Форс-мажор): табиӣ офатлар, уруш эълон қилиниши ёки бошланиши, камал ҳолати, экспорт ёки импорт операцияларини ҳукумат томонидан таъқиқланиши билан боғлиқ ҳолда бажармаганликлар учун жавобгар булмайди. Форс-мажор ҳолат бошланганлиги ва тугаганлиги тугрисида ваколатли орган томонидан берилган ҳужжатга асосан бир тараф иккинчи тарафни зудлик билан ёзма равишда огоҳлантиради.

### VII. НИЗОНИ ХАЛ ҚИЛИШ ТАРТИБИ

7.1. Ушбу шартнома мажбуриятларидан келиб чиқадиган барча низолар, томонлар ўртасида тинч, ўзаро келишилган ҳолда ҳамда тарафларнинг ўзаро жавоб бериш муддати 5 кун бўлган претензия хатларини алмашинуви орқали хал этилади. Низоларни тинчлик йули билан хал этишнинг иложи бўлмаганда, низо Тошкент туманлараро иқтисодий судида кўрилади.

### VIII. ШАРТНОМА МУДДАТИ

8.1. Шартнома имзоланиб, тегишли Ғазначилик органида рўйхатга олингандан бошлаб кучга киради ва 31.12.2022 йилга қадар амал қилади.

### IX. УМУМИЙ ҲОЛАТЛАР

9.1. Шартномага киритилиши лозим бўлган барча узгартириш ва қўшимчалар фақат ёзма тартибда амалга оширилади ва томонлар имзолаб, муҳрлагандан сўнг асосий шартноманинг ажралмас қисми ҳисобланади.

9.2. Ушбу шартномага оид, лекин шартномага киритилмасдан қолган барча ҳолатлар Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунлари асосида хал этилади.

9.3. Ушбу шартнома томонлар учун икки нусxada имзоланган ва муҳрланган бўлиб бир хил юридик кучга эга.

### X. ТОМОНЛАРНИНГ ПОЧТА МАНЗИЛЛАРИ ВА БАНКДАГИ ҲИСОБ РАҚАМЛАРИ

«СОТУВЧИ/SOTUVCHI»

«Тошкент вилояти Дори-Дармон» АЖ

Манзил: Тошкент в., Нурафшон ш, Тошкент йули кучаси 125-уй /Manzil: Toshkent v., Nurafshon sh, Toshkent yo'li ko'chasi 125-uy

тел/факс/tel/faks: 256-37-43, бух 256-34-31

ХР-20210000200117862001 МФО-00895

НБ ВЭД РУз Мирзо Улугбек Филиали/ NB VED RUz

Mirzo Ulugbek Filiali

ИНН/INN -200625846 код ОКОНХ-71150

ОКЭД/OKED 46460

Email: doridarmon@mail.ru

Бошқарув раиси/ Boshqaruv raisi

АДВОКАТСКАЯ ФИРМА

**PraeLegal**  
Uzbekistan

6.1. Taraflarning birontasi ham boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (Fors-major): tabiiy ofatlar, urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, qamal holati, eksport yoki import operatsiyalarini hukumat tomonidan ta'qiqlanishi bilan bog'lik holda bajarmaganliklar uchun javobgar bo'lmaydi. Fors-major holat boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida vakolatli organ tomonidan berilgan hujjatga asosan bir taraf ikkinchi tarafni zudlik bilan yozma ravishda ogohlantiradi.

### VII. NIZONI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar, tomonlar o'rtasida tinch, o'zaro kelishilgan holda hamda taraflarning o'zaro javob berish muddati 5 kun bo'lgan pretenziya xatlarini almashinuvi orqali hal etiladi. Nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etishning iloji bo'lmaganda, nizo Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'riladi.

### VIII. SHARTNOMA MUDDATI

8.1. Shartnoma imzolaniб, tegishli Ғ'aznachilik organida ro'yxatga olingandan boshlab kuchga kiradi va 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.

### IX. UMUMIY HOLATLAR

9.1. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma tartibda amalga oshiriladi va tomonlar imzolab, muhrlagandan so'ng asosiy shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.2. Ushbu shartnomaga oid, lekin shartnomaga kiritilmasdan qolgan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal etiladi.

9.3. Ushbu shartnoma tomonlar uchun ikki nuxxada imzolangan va muhrlangan bo'lib bir xil yuridik kuchga ega.

### X. TOMONLARNING POCHTA MANZILLARI VA BANKDAGI HISOB RAQAMLARI

«ХАРИДОР/XARIDOR»

ДИО Ва ДИАТЧТАВА

(бюджетдан маблаг олувчининг номи)

(byudjetdan mablag oluvchining nomi)

УЛ. ТАХТАПУЛ- ДАРВОЗА 341 ДОМ

Манзил/Manzil 100021860272807073201054001 Тел/факс.

Тел/факс 996960000 91513 003Д 86100

ш/х, sh/x 143-ВО МИН-ВА ФИК В

Р/С: бюджетдан маблаг олувчи

СТИРИ/ STIRI 00000000000000000000

Ғазначилик бўлинмаси номи

Банкнинг номи

МФО/ MFO

Ғазначилик бўлинмаси СТИРИ/ Ғ'aznachilik bo'linmasi

STIRI

Рахбар/ Rahbar

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан берилган Лицензия асосида хусусий амалиёт амалга оширувчи Адвокат ҳуқуқий экспертизани амалга оширди. Шартнома шартлари асосида Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонунчилигига кўра ишлаб чиқилган. Шартнома шартлари мазкур турдаги битимларга нисбатан қўйиладиган қонунчилик талабларига жавоб беради. Шартномада кўрсатилган ҳолатлар Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси ва "Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида"ги Қонун ва бошқа қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади. Мазкур шартномадан келиб чиқадиган мажбуриятларни бажармаслик ёки лозим даражада бажармаслик учун белгиланган жавобгарлик чоралари Фуқаролик кодекси ва "Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида"ги Қонуни талабларига мос келади.

Адвокат

**Спецификация**  
к договору №41 от 18.01 2022

**Поставщик** Тошкент вилояти "Дори-Дармон" АЖ  
**Адрес** Тошкент в, Нурафшон ш, Тошкент йули куч 125-уй  
**Телефон** 95 198-03-12, 95 198-03-15  
**Р/счет** 20210000200117862001  
 в г. Ташкент, Мирзо-Улугбекское отд. НБ ВЭД РУз  
**МФО** 00895 200625846  
**ОКОНХ** 71150


**Получат**  
**Адрес**  
**Телефон**  
**Р/счет**  
 в  
**МФО**  
**ОКОНХ**

**РНО ВА РНАТМТ ВФ**  
 УЛ. ТАХТАПУЛ-ДАРВОЗА 341 ДОМ  
 Т/С: 100021860272807073201054001  
 ИНН: 201229696 ОКОНХ 91513 ОКЭД 86100  
**КАЗ-ВО МИН-ВА ФИН-В**  
 Р/С: 23402000300100001010  
**ТОШ. ГОР. Г.Л. УПР. ЦБ**  
**МФО/00014 ИНН КАЗ/201122919**

№	Наименование товаров	Срок годн.	Производитель	Ед.Изм	Кол-во	Цена	НДС 15%	Цена с НДС	Сумма с НДС
1	ЭТАНОЛ (СПИРТ ПИШЕВОЙ АЛЬФА) 96,58 (КГ)	01.01.2099	БИОКИМЕ	КГ	30,00	21 880,00	3 282,00	25 162,00	754860

754860

Поставщик



Покупатель

